


Milliy test tizimi Rus tili fani sertifikati uchun o'tkazilgan test sinovi approbatsiyasi natijalari tahlili

Rus tili fanidan har bir variant 50 ta test topshiriqlaridan iborat bo'lib, approbatsiya test sinovida jami 254 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Statistik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan maxsus dastur yordamida pedagogik testlarning asosiy statistik tavsiflari: o'rtacha qiymat, gistogrammani qurish, moda va mediana kabi ko'rsatkichlarni hisoblash hamda test ballarining umumiy dispersiyasi (standart og'ish) aniqlandi. Bu ko'rsatkich test ballari o'rtasidagi tafovutlarni umumlashtiradi, ularga xos bo'lgan yo'nalishni, qonuniyatni ochib beradi. Test ballarining eng ko'p takrorlanadigan qiymati statistikada **moda** deb, o'sish tartibida joylashtirilgan test ballari qatorining o'rtasida joylashgan qiymat esa **mediana** deb ataladi. O'rtacha arifmetik qiymat, moda va mediana qiymatlari o'zaro teng bo'lganda test ballari taqsimoti simmetrik bo'ladi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar biri-biridan qanchalik ko'p farq qilsa, ballar taqsimoti normal taqsimotdan shunchalik uzoq bo'ladi.

Quyidagi jadvalda Rus tili fanidan test topshiriqlari natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlar hamda taqsimot gistogrammasi keltirilgan.



Jadvaldagi qiymatlardan - o'rtacha qiymat (49,92) o'rtada, mediana (52) eng katta va moda (43) eng kichik ekanligini aniqlandi. Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, taqsimotning chap tomonga normal taqsimotga nisbatan biroz cho'zilganligi, cho'qqilari normal chiziqqa nisbatan biroz balangdligi kuzatildi.

Shuningdek, Rus tili fani bo'yicha eng muhim ko'rsatkichlardan **ishonchlilik koeffitsienti** (Kronbax alfasi) **0,779** ga hamda **o'lchashning standart xatoligi** (SEM) **5,76** ga teng ekanligi aniqlandi.